

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MILLIYLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISH

¹Ibragimova F.E., ²Ismatova Z.O.

¹Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti,

²JDPU I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda maqollarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan bo‘lib, darsliklardagi maqollar o‘rganilib, ularning ma’no va mazmuni o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Milliylik, maqol,xalq og‘zaki ijodi, qadriyatlar, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi.

Annotation: This article discussed the importance of proverbs in the education of primary school students, studied proverbs in textbooks, revised their meaning and content

Key words: Nationality, proverb, folklore, values, primary education, student.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlanib kelayotgan davrda o‘quvchilarni Ona Vatanga sadoqatli, o‘z yurtini sevuvchi, sidqidildan xizmat qiluvchi yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Aynan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliylik ruhida tarbiyalash va ta’lim berish jarayonida maqollarning o‘rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek bolalalarni o‘qitishda ularning ta’lim va tarbiyasiga katta e’tibor berish lozim[1].

Maqol bu xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janri bo‘lib, uni badiiy va tarixiy ahamiyatga ega solnomaga desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqol lo‘nda va qisqa, obrazli hamda chuqur mazmunga ega bo‘ladi. Qolaversa, maqolda avlod-ajdodlarimizning o‘z hayotiy tajribalari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, tarixiy, estetik, ijobiy va salbiy

tushunchalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, asrlar mobaynida xalqning turmush tarzidan kelib chiqib shakllangan xalq og‘zaki ijodining muhim janridir. Maqollar ham boshqa janrlar kabi mavzu yuzasidan vatan, mehnat, do‘stlik, ilm-u hunar kabi juda ko‘plab yo‘nalishlarga bo‘lingan. Dastlabki maqollarni turkiy xalqlarda Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida uchratishimiz mumkin. Maqol yana matal, zarbulmasal, naql, hikmatli so‘z deb ham yuritiladi.

O‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida maqollar ma’naviy ozuqa hisoblanishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida maqollarning mazmunini o‘rgatish va ularga amal qilishni singdirish zarur. Maqollar xalqimizning qadriyatları, urchodatlari, tarixi, madaniyati umuman olganda o‘zbek millatini yorqin aks ettirib berguvchi ko‘zgudir. Maqollar o‘zining qo‘llanilishi bilan birga pedagogika sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida turfa xil mavzudagi maqollarni uchratishimiz mumkin, aynan o‘quvchilarining so‘z boyligi, dunyoqarashi, ma’naviy fazilatlari rivojlantiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasini aniqlab beruvchi xalqaro PIRLS tadqiqotlarida ham, aynan, o‘quvchilarining mustaqil fikrlay olishi, jamoa bilan ishlab keta olishi, lug‘at boyligi, dunyoqarashi kabi xislatlariga ham e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinfda o‘zlashtirib boriladigan bilimlar ketma-ketlikda murakkablashib boriladi. Xuddi shunday maqol ham 1 va 2 sinflarda oson va sodda ko‘rinishda bo‘ladi, ma’no va mazmuni o‘quvchilarga tushintirilib beriladi.

Mazkur davrga mo‘ljallab kiritilgan maqollar har tomonlama ko‘rib chiqilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun psixologik, fiziologik, pedagogik jihatlarini qamrab olgan. O‘qituvchi maqollardan foydalanish jarayonida undan yuqori ilmiy salohiyat, yuksak darajada ma’naviyatni talab qiladi. O‘quvchilarni muntazam ravishda maqollar va ibratli hikmatlar bilan hayotiy misollar keltirgan holda namunalar bilan mazmunini yoritib berish, ularning ongida va qalbida ezgulik urug‘ini yaratish, milliy va an‘anaviy qadriyat, e’tiqodlarimizni anglab yetishi, hurmat qilishi, o‘zligini anglashini shakklantirish kabi muhim vazifasi turibdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yangi darsliklari asosida maqollarni ko‘rib chiqamiz. 2-sinf Ona tili

va o‘qish savodxonligi kitobining 2-qismida “Vaqtning qadri” bobida 19-sahifasida maqollar uchun alohida mashq keltirilgan. Ular quyidagilar “Vaqt tog‘ni yemirar, suv toshni kemirar”, “Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar”, “Yoqut bilan vaqt topilmas, vaqt bilan yoqut topilar”, “Vaqting ketdi - naqding ketdi” ushbu maqollar o‘quvchilarni yoshiga mos qilib olingan bo‘lib, mehnatsevarlikka, ma’naviyatga, odob-axloqqa o‘rgatadi.

Maqollarni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchidan katta mahoratni talab etadi. Har bir mavzuda keltirilgan maqollarning ma’nosi asar mazmuniga mos holda keltiriladi. 1-sinflarda maqollar savod o‘rgatish vaqtidayoq o‘tiladi, ya’ni qisqa va lo‘nda berilib boriladi. Alifbe darsligida quyidagi maqollarni ko‘rib chiqamiz, “Oltin olma, duo ol”, “Hunar, hunardan unar”, “Mehnat, mehnatning tagi rohat”, “Ona yurting omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, “Bulbul chamanni sevar, odam-Vatanni” kabi maqollar keltrilgan. Ushbu maqollarda kattaga hurmatda bo‘lish, hunar o‘rganish, mehnatni sevish, Vatanga muhabbatli bo‘lib ulg‘ayish, dangasalik kabi ko‘plab xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Maqol o‘rganish jarayonida ularni yod olish mazmunini anglash, maqol tarkibidagi izohtalab so‘zlarni, birikmalarni tushintirib berish muhim vazifa hisoblanadi. Maqolda ko‘chma ma’nolarni tahlil qilib o‘rganish, qarama-qarshi so‘zlarni, takroran keluvchi so‘zlarni ma’nosi yuzasidan tahlil qila olishi va ko‘nikmasini shakllantirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maqollarni o‘rganish jarayonida o‘z milliy qadriyatlarini anglashi, Ona Vatanga mehr-muhabbatli bo‘lib ulg‘ayishi, o‘zidan kattalarni hurmat qilishi kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. 13-bet.
2. I. Azimova, K. Mavlanova, S. Quronov, Sh. Tursunov 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” Toshkent-2021 43-52 bet
3. R. Safarova, M. Inoyatova 1-sinf “Alifbe” darsligi Toshkent-2021 14-bet
4. <https://www.ziyonet.uz> internet portali